



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

OILAVIY MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH VA ZAMONAVIY OILALARNI MUSTAHKAMLASHDA TARBIYANING O'RNI

Tursunov Baxodir Nishonovich

Oila va Gender ilmiy tadqiqot instituti, doktorant (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi davrda oilalarda yuz berayotgan muammolarni bartaraf etishda tarbiyaning o'rni muhim ekanligi va tarbiya oilani mustahkamlovchi omil ekanligi tahlil qilingan. Maqola tayyorlanish jarayonida tarbiya tarixiy davrlardan beri muhim omil ekanligi ko'rib chiqildi. To'g'ri Tarbiya barcha muammolar yechimi ekanligi yoritildi. Mutafakkirlarning tarbiya oid qarashlari o'rganildi. Tarbiya tarix, hozirgi zamon va kelajak uchun jamiyatni rivojlantiruvchi muhim omil ekanligi ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: oila, zamonaviy oila, tarbiya, axloq, ma'naviyat, ijtimoiy funksiyalar, ma'naviy funksiyalar, iqtisodiy funksiyalar.

РОЛЬ ВОСПИТАНИЯ В ПРЕОДОЛЕНИИ СЕМЕЙНЫХ ПРОБЛЕМ И УКРЕПЛЕНИИ СОВРЕМЕННОЙ СЕМЬИ

Турсунов Баходир Нишонович

Институт семьи и гендера, докторант (PhD)

Аннотация

В статье анализируется роль воспитания в преодолении современных семейных проблем и подчеркивается его значение как фактора укрепления семьи. В процессе подготовки статьи рассмотрено значение воспитания как важного социального феномена с исторических эпох до современности. Обосновано, что правильное воспитание является ключом к решению многих социальных проблем, изучены взгляды мыслителей на воспитание. Показано, что воспитание выступает важным фактором развития общества в прошлом, настоящем и будущем.

Ключевые слова: семья, современная семья, воспитание, нравственность, духовность, социальные функции, духовные функции, экономические функции.

THE ROLE OF EDUCATION IN OVERCOMING FAMILY PROBLEMS AND STRENGTHENING MODERN FAMILIES

Tursunov Baxodir Nishonovich

Institute of Family and Gender Studies, Doctoral Researcher (PhD)

Abstract

The article analyzes the important role of education in addressing contemporary family problems and emphasizes its function as a key factor in strengthening the family. The study examines the historical significance of education as an essential social factor from past to present. It highlights that proper education serves as a solution to many social issues and explores the views of thinkers on education. The article demonstrates that education is a crucial factor in the development of society in the past, present, and future.

Keywords: family, modern family, education, morality, spirituality, social functions, spiritual functions, economic functions.

Hozirgi globallashuv davrida tarbiya masalasi juda dolzarb jarayonga aylanib bormoqda. Sababi tashqaridan kirib kelayotgan axborotlar yoshlarning dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu esa yoshlar tarbiyasi buzilishi va oila mustahkamligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kirib kelayotgan yod g'oyalarni cheklab qo'yishni imkoniyati yo'q, chunki globallashuv sharoitida bu imkonsizdir. Axloqsiz, buzg'unchi va Yod g'oyalarga yoshlar ergashib ketmasligi uchun ularga tog'ri tarbiya berish bugungi kun davr talabidir. Shu o'rinda buyuk mutafakkirimiz Abdulla Avloniyini "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Degan fikrlarini yodga olmog'miz lozimdir. Chunki buyuk mutaffakirimiz bu jummalarni bejiz ishlatmagan. Tarbiya oila va jamiyatdagi hodisalarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. agar tarbiya yaxshi berilgan bo'lsa u jamiyatni yuksaltiradi. Agar tarbiyaga oilada yaxshi e'tibor berilmagan bo'lsa u nafaqat oila azolariga salbiy ta'sir qiladi, butun jamiyatni ichidan yemirib boradi. Buyuk mutafakkirimiz shuning uchun ham tarbiyaga yuqoridagi kabi tarif bergan. Tarbiya oila va jamiyat uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu xususda shunday deb: «Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim.

Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahon-

gir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq. Qarang, qanday bebaho, oltinga teng gaplar. Bugungi globallashuv jarayonida farzandlarga to'g'ri tarbiya berish ota-onalarning birinchi o'rinda turadigan vazifalaridan biridir. bu borada nafaqat ota-onalar, butun jamiyat, davlatimiz rahbarining o'zi birinchi o'rinda qayg'urmoqda. Tarbiya masalasi jamiyat kelajagini belgilab beradigan jarayondir.

Farzandlar oilada to'g'ri tarbiya olishi uchun oilada ham sog'lom muhit shakillangan bo'lishi lozim. Bazi bir oilalarda muammoli jarayonlar ko'p bu esa bola tarbiyasiga va oilada sog'lom muhitni buzilishiga olib keladi. Oilada yuz beradigan jarayonlar bir ikkinchisiga bog'liq holda amalga oshiriladi.

oilaning hayotiy tarzi uning hayotiy tsikli, tutimi bilan bog'liq. Ayrim

olimlar, masalan, Amerikalik yozuvchi, Verjinya Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromi va tutimini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog'laydi. unga ko'ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

1-bosqich. Aksariyat olimlar oiladagi hayot tsikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang'ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko'pchilikning guvohligida o'tkazilgan tantanalar bilan izohlanadi.

2-bosqich. Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo

bo'lishi. Satirning fikricha, zurriyodning paydo bo'lishi, tug'ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sinovdan o'tkazadi va ular o'ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma'no beruvchi voqea – bu er va xotinga yangi rollarning berilishi, anchagina kata ijtimoiy mas'uliyatni o'ziga qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir. Ko'plab xalqlarda, ayniqsa, o'zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda kata quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular qadriyat sifatida asrlar osha saqlab kelinmoqda. Masalan, bola tug'ilishi bilan bog'liq suyunchi marosimlari, aqiqa, beshik sold, sunnat va beshik to'ylari kabilar shular jumlasidandir. SHunga qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, yevropa xalqlarida oilada farzandning tug'ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsional hayajonlar, yaqinlariga

ijtimoiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba'zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarda aks etadi. Oila va farzand oldidagi bunday mas'uliyatlar ayrim hollarda er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba'zan ajrimlarga, bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo'ladi.

3-bosqich. Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar – maktabgacha ta'lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta'limning boshlang'ich o'chog'i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u yerda har bir bolaning qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o'tadi. Chunki u endi nafaqat o'zi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko'chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday ahloqiy va ma'naviy o'g'itlarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi – maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o'tadi. Ya'ni, bolasini maktabga berar ekanlar, ota-onalar ham jamoatchilik oldida o'ziga xos sinov va tekshiruvdan o'tayotganday his qiladilar o'zlarini. Yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktab yillarining dastlabki oy va yillarida bilingani sababli, ko'pgina ota-onalar ayni shu davrlarda kuchli stressni boshidan kechiradilar.

4-bosqich. Bola o'smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta'qib qilavermaslikni da'vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro'si, kerakligi darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o'zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo'lishga intilishlar paydo bo'ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo'layotgan o'zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o'tkazadi. Sinovdan yaxshi o'tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o'tib oladi, aks holda o'smirlik davrining o'ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona – bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydin ketib qolish holatlarigacha boradi.

5-bosqich. Bolalar katta bo'lib, balog'at yoshiga yetadilar, o'qishlarni tugatib, mustaqil kasb-hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. SHu davrga kelib, "Bola – ota-ona" munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat yevropa xalqlariga mos, balog'at yoshiga yetgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o'zlaricha, o'z bilganlaricha xal qila boshlaydilar. Ota-onalar ularning xato qilib qo'yishlaridan xavotir olmay qo'yadi.

Bizda, SHarq xalqlarida bu holat biroz boshqacha: ota-ona farzandi kasb-hunarli bo'lib, mustaqil professional yo'ldan ketayotgan bo'lsa ham, ularning kelajagi, oilasi, moliyaviy ahvoli borasida xavotirga tushaveradi, o'g'il uylanishi, qizlarning turmush chiqishlarida ota-ona va ularning ota-onalari – momolar va buvalar bosh-qosh bo'ladilar. Turmush o'rtog'i tanlash masalasi ham bizda juda kam holatlarda bo'yiga yetgan qiz yoki yigit ixtiyoriga havola etiladi. Ya'ni, ko'chadan birdan notanish qizni "Tanishing, bu mening bo'lg'usi qallig'im, turmush o'rtog'im" deyishlar bizda deyarli uchramaydi, chunki bunga bizning asriy urf-odatlarimiz, oilaviy tarbiya mezonlarimiz yo'l qo'ymaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan hayotiy tutilmlar oila a'zolari har birining xulqatvorida, dunyoqarashi va odatlarida muayyan o'zgarishlarning kuzatilishiga, yangicha rollar o'zlashtirilishiga olib keladi. Har bir yangi bosqich shaxs ongida muayyan krizislar, ziddiyatlar bilan kechadiki, ularni yengish, qiyinchiliklardan yaxshilik bilan o'tish insondagi yaxshi fazilatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, sabr-qanoatiga bog'liqdir. Har bir bosqichda ota, ona va farzandlar, kuyov-kelinlar bilan o'zgacha munosabatlar tizimi shakllanadi. Mana shunday mas'uliyatlar albatta tarbiyani natijasi hisoblanadi.

«Tib qonunlari», «Kitob an-najot», «Kitob ash-shifo», «Tadbir-e manzil», «Insof haqida

risola», «Ishq haqida risola», «Nafs haqida risola» va boshqa ko'plab asarlar yozib qoldirgan buyuk Abu Ali ibn Sino inson va uning fazilatlarini yuksaklikka ko'tarish, ta'lim-tarbiya, axloq va xulq-odob haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Ibn Sino o'z qarashlarida ta'lim-tarbiya masalalarini ham tahlil etadi. Bu borada uning «Tadbir-e manzil» risolasi muhim ahamiyatga ega. Bola, eng avvalo, oilada, undan so'ngra maktabda va jamoada tarbiya ko'radi. Uning kamolotga yetishuviga davlat ham yordam berishi va g'amxo'rlik qilishi kerak. Ibn Sino tarbiyaning turli-tumanligi haqida fikr yuritib, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, kasb-hunarga o'rgatish tarbiyasi kabilar ustida to'xtaladi. U axloq-odob masalalariga ham katta e'tibor berib, kamtarlik, ilm egallash, donolik, saxiylik, odamiylik, do'stlik, halollik, qanoat, sabr-toqat, iffat, mo'tadillik, shijoatlilik va boshqa insoniy fazilatlarni batafsil ta'riflaydi. Ko'rishimiz mumkinki bu insoniy fazilatlar hammasi insonning egallaydigan tarbiyasiga bog'liqdir.

Afsuski bugungi kunda juda ko'p insonlar iqtisodiyot va moddiylikni birinchi o'ringa qo'yimoqda. Tarbiyaga bo'lgan e'tibor esa ikkinchi darajaga turshib qolmoqda. Insonlar anglab yetmayabdiki erishiladigan barcha yutuqlar, shu jumladan moddiyat ham albatta insonning tarbiyasi bilan bog'liqligini. Chunki inson qancha to'g'ri tarbiyalansa shuncha yuksalib boradi. Sababi to'g'ri tarbiyalangan shaxs o'zini boshqarish, oldinda turgan muammolarni qanday bartaraf etishni yaxshi biladi. Bu esa oila mustahkamligini ham taminlaydi. Oila mustahkamligi va oilaviy muammolarni bartaraf etishning o'ziga hos bo'lgan funksiyalari mavjud. bu funksiyalar quydagilardan iborat:

Ijtimoiy funksiyalar

- Nasl-nasabni davom ettirish: Oila yangi avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash orqali jamiyatning kelajagini ta'minlaydi.
- Ijtimoiy integratsiya: Oila a'zolari ijtimoiy normalar, qonun-qoidalar va madaniyatni o'zlashtirib, jamiyatga qo'shiladilar.
- Ijtimoiy nazorat: Oila a'zolarining xulq-atvorini nazorat qilib, jamiyatga zarar yetkazadigan harakatlarning oldini oladi.

Iqtisodiy funksiyalar

- Moddiy ta'minot: Oilaning a'zolari jamiyatning iqtisodiy birligi sifatida faoliyat yuritib, iqtisodiy va moddiy boyliklar yaratadi.
- Iste'mol: Oila a'zolari mahsulot va xizmatlarni iste'mol qilib, iqtisodiyotning talab va taklif qismlarini shakllantirishga yordam beradi.
- Mehnat resurslarini tayyorlash: Oilada bo'lajak ishchi va mutaxassislar tayyorlanadi.

Ma'naviy funksiyalar

- Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish: Oila axloq, qadriyatlar, e'tiqod va madaniyatni avlodlardan avlodga o'tkazib beradi.
- Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish: Oila a'zolarining psixologik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, muhabbat, g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratadi.
- Axloqiy tarbiya: Oila a'zolariga to'g'ri va noto'g'ri tushunchalarini singdirib, shaxsni axloqli qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Jamiyatga ta'siri

- Barqarorlik: Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi bo'lib, uning barqarorligi jamiyatning umumiy barqarorligiga olib keladi.
- Ijtimoiy rivojlanish: Oilaning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy funksiyalarini samarali bajarishi jamiyatning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ijtimoiy muammolarni oldini olish: Oilaning to'g'ri shakllanishi va faoliyati jinoyatchilik, giyohvandlik kabi ijtimoiy muammolarni kamaytiradi. Agar oilada mana shu funksiyalar o'z vaqtida bajariladigan bo'lsa oilada muammolar ham yuzaga kelmaydi. Oilada muammolarni bartaraf etilishi jamiyatni rivojiga o'z tasirini ko'rsatadi. Buning uchun inson o'zini-o'zi nazorat qila olishi va eallagan bilimlarini

amalyotda qo'llay bilishi kerak. Abu Rayhon Beruniy shunday degan:

«Inson o'z ehtirolariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir bo'lishi zarur. U o'zini tarbiyalar ekan, salbiy qusurlarni maqtagudek xislatlarga aylantirishga, ma'naviy shifokorlik bilan asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir». Abu Rayhon Beruniy teriflaganidek inson o'zini boshqara olishi kerak. Shunda inson o'zini axloqning yuqori cho'qqisiga ko'tarishi mumkin. Axloqning yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan inson muammolarni ham kamchiliklarsiz bartaraf eta oladi.

Xulosa: oilaviy muammolarni bartaraf etishda tarbiyaning o'rni juda katta. Inson yaxshi hulq egasi bo'lsa har qanday muammoga yechim topadi. Sababi yaxshi xulq insonda malum bilimlar asosida shakillanadi. Bilimga ega bo'lgan insonda hech qanday muammo bo'lmaydi. Zamonaviy oilalarni mustahkamlashda tarbiya birinchi o'rinda turishi kerak, chunki bugungi kunda hamma internet tarmoqlardan foydalanadi. Undan olinayotgan axborotlarni hammasi ham yaxshilikka xizmat qiladi deb ayta olmaymiz. Tarbiyali inson esa qanday axborotni qabul qilish kerakligini yaxshi biladi. Shuning uchun ham bugungi globallashuv sharoitida ota-onalar tarbiyani birinchi darajalik maqsadga aylantirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza //
2. «Xalq so'zi» gazetasi, 2016 yil 8 dekabr.
3. Aliqulov H. Gumanistik meros va shaxs ma'naviy kamoloti. —T.: Falsafa va xuquq instituti, 2006.
4. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. Т. «Фан», 1968.
5. И. Саифназаров. Ф. Саифназарова. Ёшлар ва оила ватан таянчи Тошкент-2018 «Та'lim nashriyoti»